



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

Qibray tumani

12 yanvar 2026 yil.

1-9-6/ 7-son

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2026-yil 5-yanvardagi 05/42-sonli xati ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 28-iyun kuni faol va tashabbuskor yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuv videosektor yig'ilishining 31-son bayoni 17-bandida belgilangan "Yoshlarni inklyuziv volontyorlikka tayyorlash dasturi"ni amalga oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 5-yanvardagi 05/42-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor J.Lapasov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i S.Isroilov, Universitet Yoshlar yetakchisi S.Muhammadaminov, barcha fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari hamda tyutorlarga:

Universitetda "Inklyuziv volontyorlar" guruhlarini tashkil etish maqsadida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

nogironligi bo'lgan talaba-yoshlarni ushbu guruhlariga keng jalb etish;

volontyorlik guruhlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur tashkiliy va amaliy choralar ko'rish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor J.Lapasov zimmasida qoldirilsin.

Rektor



N.Oblomuradov